O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI
BUXORO SHAHAR HOKIMI
QARORI

200118, Buxoro shahri, I.Mo‘minov ko‘chasi, 2-uy. Tel: (365) 224-24-10, faks: 224-23-15, e-mail: buxoro.shahar@umail.uz

2023 - yil 12 - yanvar 10-2-42-Q/23 Buxoro shahar hokimligi

Buxoro shahar hududida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar oldida transport vositalarining to‘xtab turish soni ortib borayotganligini inobatga olib, Buxoro shahar, I.Karimov ko‘chasida avtomobillarning harakatini tartibga solish maqsadida, Buxoro viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 25-noyabrdagi 24/6-9385-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Ma’muriy tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4, 59-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Buxoro viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 25-noyabrdagi 24/6-9385-sonli xati inobatga olinsin.

2. Buxoro shahar, I.Karimov ko‘chasining Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi kesishmasidan B.Naqshband ko‘chasi kesishmasigacha bo‘lgan yo‘lda 3.27 «To‘xtash ta’qiqlangan» ta’qiqlovchi yo‘l belgisi o‘rnatishga ruxsat etilsin hamda amal qilish davri ertalab soat 07:00 dan soat 10:00 gacha, kechki soat 17:00 dan 20:00 gacha etib belgilansin.

3. Buxoro viloyat ichki ishlar boshqarmasi JXX YHXB maxsus ekspluatatsiya montaj bo‘limi (A.Jumaev) ushbu yo‘l belgisi o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Buxoro shahar IIO FMB YHXB (M.Ergashev)ga mazkur avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. “Istiqlol TV” teleradiokanali (B.Bozorov), “Buxoro oqshomi” gazetasi tahririyati (I.Radjabova)ga shaharning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘lida transport vositalarining harakatlanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilib, aholini xabardor qilish tavsiya etilsin.

6. Buxoro shahar hokimining 2022-yil 1-dekabrdagi 599-2-42-Q/22-sonli qarori bekor qilinsin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati shahar hokimining o‘rinbosari M.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro shahar hokimi **J.Nosirov**